

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
ICHKI KASALLIKLAR KAFEDRASI**



**“TERAPIYA” (Klinik allergologiya, immunologiya, ftiziatriya, pulmonologiya)
fanidan**

3-kurs talabalari uchun

ISHCHI O‘QUV DASTURI

Bilim soxasi: 500000 - Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta`minot
Ta`lim sohasi: 510000 – “Sog‘liqni saqlash”
Ta`lim yo‘nalishi: 60910100 - Stomatologiya

Andijon 2025 yil

Fan/modul kodi TER 156-055		O'quv yili 2024-2025	Semestr 6	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek, rus, ingliz		Xaftadagi dars soatlari 1/3	
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	“Terapiya”	60	60	120	
2	<p>I. Fanning mazmuni. Modulning maqsadi – talabalarga ichki kasalliklar to‘g‘risida ma‘lumot berish, ichki kasalliklar xurujida tibbiy yordam ko‘rsatish asoslarini o‘rgatish, ichki kasalliklarda qo‘llaniladigan tekshirishusullari to‘g‘risida ma‘lumot berish, turli tekshirish usullarini qo‘llash natijasida aniqlanadigan organizmda aniqlangan o‘zgarishlar to‘g‘risida tushuncha berish, kuzatish natijalari asosida taxminiy tashxis qo‘yish, ichki kasalliklarni nozologik shakllari to‘g‘risida ma‘lumot berish, ularni klassik, tipik variantlarda kechishini va inson hayotiga xavf soluvchi hollarda yordam ko‘rsatish choralari aniqlash, ichki kasalliklarni davolashni asosiy tamoyillarini bilishga o‘rgatishdan iborat.</p> <p>Modulning vazifalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> – ichki kasalliklarning etiologiyasi, patogenezini, tasnifi, klinik ko‘rinishlari, kechishi, asoratlari, oqibati, davolash va profilaktikasi bo‘yicha bilimlarni takomillashtirish; – ichki kasalliklar bilan kasallangan bemorlardan anamnez yig‘ish; – ichki kasalliklarning asosiy klinik belgilarini aniqlay olishni o‘rgatish; – ichki kasalliklar xurujida bemorlarni tekshirish, shifokor taktikasi va tibbiy yordam ko‘rsatishni o‘rgatish; – laborator va instrumental tekshiruvlar natijalaridagi patologiko‘zgarishlarni aniqlashni o‘rgatish; – inson organizmining immun holati, organizm sezuvchanligi, allergik reaksiyalarning rivojlanishi to‘g‘risida ma‘lumot berish; – allergik reaksiyalar va anafilaktik shok, belgilari, tez tibbiy yordam ko‘rsatish usullari; – birlamchi immun tanqislik holatlari – OITS belgilarini, klinikasini, profilaktika chora tadbirlari bo‘yicha bilimlarni takomillashtirish; 				

- sil kasalligi to‘g‘risida ma‘lumot berish, yuqish yo‘llarini o‘rgatish nafas a‘zolari, yuz-jag‘ sohasi, og‘iz bo‘shlig‘i sili belgilarini aniqlash, hamda silni kasalligini profilaktika usullarini o‘rgatish.

II. Asosiy nazariy qism (ma‘ruza mashg‘ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

6 semester:

- 1. 1- ma‘ruza: Terapiya moduli va uning vazifalari. O‘tkir o‘choqli va krupoz pnevmoniya. O‘tkir va surunkali bronxitlar. Bronxial astma.**

Terapiya moduli va uning vazifalari. Zotiljam kasalligi, bronxial astma tushunchasi, turlari, etiologiyasi va patogenezi. Tasnifi, klinikasi, davolash usullari va profilaktikasi. turlari, etiologiyasi va patogenezi. Tasnifi, klinikasi, davolash usullari va profilaktikasi.

- 2. 2- ma‘ruza: Gipertoniya kasalligi. Arterial gipertenziya sindromi. ishemik kasalliklari. Miokard infarkti.**

Arterial gipertoniya sabablari, tasnifi, klinikasi, diagnostikasi, davolash usullari va profilaktikasini talabalarga yetkazish. Miokard infarktining, turlari, etiologiyasi va patogenezi. Tasnifi, klinikasi, davolash usullari va profilaktikasi. Miokard infarktiasoratlarini, oldini olish.

- 3. 3- ma‘ruza: Surunkali gepatitlar. Jigar tsirrozi. Oshqozon va 12 barmoq ichak yara kasalligi.**

Gepatit va jigar tsirrozi kelib chiqish sabablari, tasnifi, klinikasi, diagnostikasi, davolash usullari va profilaktikasi. Gastritlar va yara kasalligi kelib chiqish sabablari, tasnifi, klinikasi, diagnostikasi, davolash usullari, parhez va profilaktikasi.

- 4. 4- ma‘ruza: O‘tkir va surunkali piyelonefrit va glomerulonefritlar.** Glomerulonefrit va piyelonefrit sabablari, tasnifi, klinikasi, diagnostikasi, davolash usullari va profilaktikasi.

- 5. 5- ma‘ruza: Qandli diabet. Qalkonsimon bez kasalliklari.**

Qandli diabet kelib chiqish sabablari, tasnifi, klinikasi, diagnostikasi, davolash usullari va profilaktikasi. Giper va gipotireoz, kelib chiqish sabablari, belgilari, klinikasi, diagnostikasi, davolash usullari va profilaktikasi.

- 6. 6- ma‘ruza: Sil epidemiologiyasi, sil qo‘zgatuvchisi, og‘iz bo‘shlig‘i sili, klinik kechishi.** Silni davolash va oldini olish. Sil kasalligini rivojlanish tarixi. Sil epidemiologiyasi. Sil etiologiyasi, patogenezi, diagnostikasi, tasnifi. O‘pka va o‘pkadan tashqari a‘zolar silini o‘z vaqtida aniqlash. Silni davolash va profilaktikasi. O‘zbekistonda silga qarshi kurashni tashkil etish. DOTS dasturining asosiy yo‘nalishlari.

Jami

II.2. Amaliy mashg‘ulotlarning mavzular

6-semestr

AMALIY MASHG'ULOTLAR REJASI

	1-mavzu. Terapiya moduli, uning vazifalari, qo'llaniladigan tekshirish usullari. (Ob'ektiv, sub'ektiv, laborator va instrumental tekshiruv usullari) to'g'risida ma'lumot. Nafas a'zolarining faoliyati va uni tekshirish usullari.
	2-mavzu. Surunkali va o'tkir zotiljam, sabablari, klinikasi, davolash va profilaktikasi. O'tkir va surunkali bronxit, sabablari, klinikasi, davolash va profilaktikasi.
	3-mavzu. Bronxial astma, sabablari, klinikasi, davolash va profilaktikasi.
	4-mavzu. Ovqat hazm qilish a'zolarini funksional va qo'shimcha tekshiruv usullari. Gastritlar. Me'da va 12 barmoqli ichak yara kasalligi, sabablari, klinikasi, davolash va profilaktikasi.
	5-mavzu. Oshqozon osti bezining yallig'lanishi, Ingichka va yo'g'on ichak kasalliklari, gepatitlar, jigar tsirrozi, sabablari, klinikasi, davolash va profilaktikasi.
	6-mavzu. Siydik ajratish tizimini funksional va qo'shimcha tekshiruv usullari. Glomerulonefritlar. Piyelonefritlar. Surunkali buyrak kasalligi, buyrak tosh kasalligi, sabablari, klinikasi, davolash va profilaktikasi.
	7-mavzu. Yurak - qon tomir tizimini funksional va qo'shimcha tekshiruv usullari. Gipertoniya kasalligi. Simptomatik arterial gipertenziya.
	8-mavzu. Yurak ishemik kasalligi. Stenokardiyalar. O'tkir miokard infarkti
	9-mavzu. Orttirilgan yurak nuqsonlari. Aritmiya va blokadalar.
	10-mavzu. Qon kasalliklari. Eritrotsitlar, leykotsitlar patologiyalari. Anemiya. Temir tanqisligi va vitamin B12 yetishmasligi kamqonligini davolash, profilaktika.
	11-mavzu. Qalqonsimon bez kasalliklari. Qandli diabet.
	12-mavzu. Allergik reaksiyalar, turlari, sabablari, tibbiy yordam va profilaktikasi. Ichki kasalliklarni davolashda qo'llaniladigan dori vositalari ta'sirida kelib chiqadigan dori allergiyalari, belgilari, stomatolog amaliyotida shoshilinch holatlarda tezkor yordam (shok, hushni yo'qotish, kollaps, koma) tibbiy yordam ko'rsatish va profilaktikasi.
	13-mavzu. Orttirilgan immun tanqislik holatlari, sabablari, klinik belgilari, davolash va profilaktikasi. Organizm immun tizimi

	faoliyatini kuchaytirish usullari, turli kasalliklarga qarshi organizm himoya kuchlarini oshirish yo'llari.
	14-mavzu. Revmatizm. Revmatoid artrit. Biriktiruvchi to'qimaning tizimli kasalliklari, TSD va biriktiruvchi to'qimaning boshqa kasalliklari, turlari, sabablari, klinik belgilari, davolash va profilaktikasi.
	15-mavzu. Sil kasalligi sabablari, klinikasi, davolash va profilaktikasi. Og'iz bo'shlig'i va periferik limfa tugunlari sili: patogenezi, klinikasi, kechish xususiyatlari. Tashxislash va qiyosiy tashxis usullari.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Modul bo'yicha mashg'ulotlar 50% nazariy (ma'ruza va amaliy mashg'ulot) va 50% amaliy qism (o'quv klinik amaliyot)dan iborat bo'lgan holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotning nazariy va amaliy qismi o'zaro bog'liq holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

Terapiya moduli bo'yicha o'quv klinik amaliyotini o'tish davrida talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan.

6-semestr

1. Pulsni tekshirish
2. Arterial qon bosimni o'lchash
3. Nafas olish sonini sanash
4. Oshqozon-ichak tizimi kasalliklarida og'iz bo'shlig'ini baholash

Modul davomida o'quv klinik amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Talabalarning o'quv klinik amaliyoti terapevtik bo'limlarda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va 3 bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Kirish qismi – mashg'ulotning maqsadi va vazifalari aniqlanadi, o'rganilayotgan ko'nikmadan foydalanishning motivatsion asosi, uning nazariy jihatlari muhokama qilinadi. Agar texnik vositalarni qo'llash talab etilsa (pikfloumetr, spiroanalizator, tonometr, va sh.o.), unda ularning ta'sir mexanizmi, qo'llash texnikasi tanishtiriladi.

	<p>2. Ko‘nikmani namoyish qilib berish va ko‘p marta mashq qilish – bunda ko‘nikmani bosqichlarga to‘g‘ri taqsimlashga alohida e‘tibor qaratiladi. Teskari aloqani olgunga qadar, ya‘ni o‘rganayotgan shaxs mustaqil, biroq pedagog nazorati ostida bajara olganda, ko‘nikmani bajarishning barcha bosqichlarini umumlashtirish va mulyajlarda, o‘zaro bir-birida ko‘p marta mashq qilish va faqat ko‘nikmaga ega bo‘lgandan so‘ng bemorda qo‘llaguncha, har bir bosqich namoyish qilinadi va ishlab chiqiladi.</p> <p>3. Xulosa – o‘rganayotgan shaxs bilan ushbu ko‘nikmaning ahamiyatini muhokama qilish va uni turli vaziyatlarda qo‘llash. So‘rov asosida birlamchi bo‘g‘inning o‘maqsadi va vazifalariga erishilgan-ligiga ishonch hosil qilish. O‘qitish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash va hal qilish. Bajarilayotgan amallar algoritmi mavjud bo‘lishi va talabalarga oldindan etkazilishi lozim. O‘qituvchi nazorat qiladi va kerak bo‘lganda talabalar ishidagi xatoliklarni to‘g‘rilaydi. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini, o‘qituvchiga va boshqa talabalarga tushuntirib beradi va so‘ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo‘ladiki, bunda boshqa talabalar ekspert sifatida chiqishga va o‘qitilayotgan talabaning amaliy ko‘nikmani to‘g‘ri o‘zlashtirganligini baholashga tayyor bo‘lishlari lozim.</p> <p>Mashg‘ulot so‘nggida o‘qituvchi har bir talabaning amaliy ko‘nikmani o‘zlashtirganlik darajasini baholaydi. Talaba amaliy ko‘nikmani o‘zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg‘ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o‘zlashtirish tavsiya etiladi.</p>								
3	<p style="text-align: center;">III. Mustaqil ta‘lim va mustaqil ishlar.</p> <p style="text-align: center;">Mustaqil ta‘lim uchun tavsiya etilayotgan mavzular ro‘yxati:</p> <table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <thead> <tr> <th style="text-align: center; width: 10%;">№</th> <th style="text-align: center;">Mustaqil ta‘lim mavzusi</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td style="text-align: center;">1.</td> <td>Ichki kasalliklarda parhez stollarining turlari va ularni tavsiya etish. Plevritlar (quruq va ekssudativ plevrit): etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, davolash va profilaktikasi. Bronxoektatik kasallik, etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og‘iz bo‘shligida o‘ziga xos o‘zgarishlar, davolash va profilaktikasi.</td> </tr> <tr> <td style="text-align: center;">2.</td> <td>O‘pka absessi: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og‘iz bo‘shligida o‘ziga xos o‘zgarishlar, davolash va profilaktikasi. O‘pka gangrenasi: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og‘iz bo‘shligida. O‘pka emfizemasi: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og‘iz bo‘shligida o‘ziga xos o‘zgarishlar, davolash va profilaktikasi.</td> </tr> <tr> <td style="text-align: center;">3.</td> <td>Ezofagit: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og‘iz bo‘shligida o‘ziga xos o‘zgarishlar, davolash va profilaktikasi. Qizilo‘ngach yarasi: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og‘iz bo‘shligida o‘ziga xos o‘zgarishlar, davolash va profilaktikasi. Ichaklar</td> </tr> </tbody> </table>	№	Mustaqil ta‘lim mavzusi	1.	Ichki kasalliklarda parhez stollarining turlari va ularni tavsiya etish. Plevritlar (quruq va ekssudativ plevrit): etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, davolash va profilaktikasi. Bronxoektatik kasallik, etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og‘iz bo‘shligida o‘ziga xos o‘zgarishlar, davolash va profilaktikasi.	2.	O‘pka absessi: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og‘iz bo‘shligida o‘ziga xos o‘zgarishlar, davolash va profilaktikasi. O‘pka gangrenasi: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og‘iz bo‘shligida. O‘pka emfizemasi: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og‘iz bo‘shligida o‘ziga xos o‘zgarishlar, davolash va profilaktikasi.	3.	Ezofagit: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og‘iz bo‘shligida o‘ziga xos o‘zgarishlar, davolash va profilaktikasi. Qizilo‘ngach yarasi: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og‘iz bo‘shligida o‘ziga xos o‘zgarishlar, davolash va profilaktikasi. Ichaklar
№	Mustaqil ta‘lim mavzusi								
1.	Ichki kasalliklarda parhez stollarining turlari va ularni tavsiya etish. Plevritlar (quruq va ekssudativ plevrit): etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, davolash va profilaktikasi. Bronxoektatik kasallik, etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og‘iz bo‘shligida o‘ziga xos o‘zgarishlar, davolash va profilaktikasi.								
2.	O‘pka absessi: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og‘iz bo‘shligida o‘ziga xos o‘zgarishlar, davolash va profilaktikasi. O‘pka gangrenasi: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og‘iz bo‘shligida. O‘pka emfizemasi: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og‘iz bo‘shligida o‘ziga xos o‘zgarishlar, davolash va profilaktikasi.								
3.	Ezofagit: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og‘iz bo‘shligida o‘ziga xos o‘zgarishlar, davolash va profilaktikasi. Qizilo‘ngach yarasi: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og‘iz bo‘shligida o‘ziga xos o‘zgarishlar, davolash va profilaktikasi. Ichaklar								

ta'sirlanish sindromi: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og'iz bo'shligida o'ziga xos o'zgarishlar, davolash va profilaktikasi.

4. Ichaklar disbakteriozi: etiologiya, patogenez, patomorfologiya. Surunkali enterit: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og'iz bo'shligida o'ziga xos o'zgarishlar, davolash va profilaktikasi. Surunkali nospetsifik yarali kolit: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og'iz bo'shligida o'ziga xos o'zgarishlar, davolash va profilaktikasi.
5. Surunkali xoletsistit: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og'iz bo'shligida o'ziga xos o'zgarishlar, davolash va profilaktikasi. Surunkali pankreatit: etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, og'iz bo'shligida o'ziga xos o'zgarishlar, davolash va profilaktikasi. Siydik chiqarish a'zolari kasalliklarida parhez stollarining xususiyatlari. Buyrak tosh kasalligida-oksalat toshlarda, urat toshlarda, siydik kislotasi chiqqanda, siydik nordon diatezida, o'tkir va surunkali piyelonefritda, o'tkir va surunkali glomerulonefritda.
6. Siydik hosil bo'lish mexanizmi: siydik ayiruv tizimining tuzilishi, nefronlar xarakteristikasi, siydik hosil bo'lishidagi asosiy jarayon – koptokchalar filtratsiyasi, kanalchalar reabsorbsiyasi, kanalchalar sekretsiyasi, birlamchi va ikkilamchi siydik. O'tkir buyrak yetishmovchiligida og'iz bo'shligidagi o'zgarishlar, asosiy kasallik bilan bog'lik xususiyatlari, SBYening kompensator intermitterlovchi va terminal bosqichlarida, buyraklar polikistozida, buyraklar amiloidozida, buyraklar silida. Yurak qon-tomir tizimi fiziologiyasi: yurak qon-tomir tizimining anatomik xususiyatlari, yurakning asosiy funksiyalari, kichik va katta qon aylanish doirasi yurak qisqaruvchanligi, og'iz bo'shlig'i va bosh miyani oziqlantiruvchi tomirlarni xarakteristikasi.
7. Yurakning elektrofiziologik xususiyatlari, yurak o'tkazuvchi tizimining xarakteristikasi, yurak avtomatizmi, yurak o'tkazuvchi tizimining tuzilishi, ritm tiklanishi, kardiomiotsitlarni fazalar bo'yicha qisqarish xarakteristikasi, atipik kardiomiotsitlar potensial faza mexanizmlari, yurak qo'zgaluvchanligi va refrakterligi. Yurak qon-tomir tizimi anatomiyasi. Yurak va asosiy a'zolari oziqlantiruvchi qon-tomir ustunlari, qon aylanish a'zolarining funksional xususiyatlari, yurak qon-tomir tizimi kasalliklarida asosiy shikoyatlar, perkussiya, auskultatsiya, parhezni o'ziga xosligi, oldini olish va davolash. Tomir tizimi anatomiyasi. Asosiy tomirlar tutami, yurak va asosiy a'zolari oziqlanishi, qon aylanish

tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ko'rik, perkussiya, auskultatsiya, parhez, davolash va profilaktikasi. Miokardni nokoronarogen kasalliklari: o'ng bo'lmacha gipertrofik kardiomiopatiyasi, restriktiv kardiomiopatiyasi, aritmogen kardiomiopatiyasi, miokardiodistorofiya, miokardni alkogol natijasida shikastlanishi, etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari.

8. Normada yurak ichi gemodinamikasi. Yurak siklining fiziologik taxlili, yurak siklining fazalari, bo'lmachalar sistola va diastolasi, yurak o'ng va chap bo'limlarining asinxronik faoliyati, yurak faoliyatida qorinchalar sig'iminin o'zgarishi. Gerontologiya, geriatriya, geroprofilaktika, katta yoshdagi insonlarni parvarishlash bo'yicha ko'rsatmalar. Patologik yurak ichi gemodinamikasi, uning o'ziga xosligi, xarakteristikasi, yurakdan otilib chiqqan qon xajmi, reografiya, ko'krak reografiyasi, funksional sinamalar, qon aylanishining daqiqalik hajmi.
9. Yurak ontogenezi, asosiy xarakteristikasi, ontogenez bosqichlari, birlamchi bo'lmachalar to'sig'i, ikkilamchi bo'lmachalar to'sig'i, qorinchalar aro to'siq hosil bo'lishi, asosiy qon-tomir ustunining hosil bo'lishi, aorta o'pka to'sig'ining hosil bo'lishi. Yurak tonlarining xarakteristikasi: I chi ton, II chi ton, III chi ton va IV chi ton, yurak tonlari va shovqinlarining hosil bo'lish mexanizmlari, og'iz bo'shligi kasalliklarida yurak tonlarining o'zgarishi, funksional shovqinlar. Sistemali kasalliklarda yurakni shikastlanishi: tizimli qizil toshma, tizimli sklerodermiyada yurakni shikastlanishi, etiologiyasi, patogenezi, patomorfologiyasi, xos belgilar, laborator va instrumental diagnostikasi, qiyosiy tashxis, og'iz bo'shlig'ida o'ziga xos o'zgarishlar, parhez va medikamentoz davolash.
10. Dislipidemiya: giperlipidemiya, gipolipidemiya, past zichlikdagi lipoproteidlar, juda past zichlikdagi lipoproteidlar, yuqori zichlikdagi lipoproteidlar, triglitseridlar, dislipidemiya bilan kechadigan kasalliklar, dislipidemiya og'iz bo'shligidagi o'ziga xos o'zgarishlar. Yurak ishemik kasalligida parhez tamoyillari: zurikish stenokardiyasida, tinch holatdagi stenokardiyada, miokard infarktida, yurak kasalliklari bilan gastrit birga kelganda kilinadigan parhez, yurak ishemik kasalligida aftoz stomatit bulganda buyuriladigan parhez. Yurakning o'tkazuvchi tizimi, tuzilishi, ritm tiklanishi, kardiomiotsitlarni fazalar bo'yicha qisqarish xarakteristikasi, atipik kardiomiotsitlar potensial faza mexanizmlari, yurak qo'zgaluvchanligi va refrakterligi.

- 11.** Kardiostimulyatsiya uchun ko'rsatma: atrioventrikulyar qamalning to'liq, noto'liq shakllari, atrioventrikulyar qamalning 2,3 bosqichlari, ritm buzilishi, ko'ndalang qamal, kardiostimulyatsiyaning asosiy xarakteristikasi, bajarish. Yurak ishemik kasalligini xirurgik davolash usullari: angioplastika, koronar tomirlarni stentlash, jarroxlik usuli bilan davolash uchun asosiy ko'rsatma, operatsiya turlari, jarroxlik usuli bilan davolash texnikasi va unga tayyorlash, operatsiyadan keyingi holat. Gipertoniya kasalligi I, II, III, IV bosqichlarida buyuriladigan parhez, og'iz bo'shlig'i kasalliklari bilan birga kelganda parhez. Simptomatik gipertoniya va ularning sabablari, ularda parhezni o'ziga xosligi:
- 12.** Arterial gipertenziya rivojlanishidagi patogenetik omillar, gemodinamika o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan gipertenzialarda buyuriladigan parhez, arterial gipertoniya, dori vositalarni uzoq vaqt qabul qilish natijasida va og'ir metal tuzlari bilan zaxarlanishda yuzaga keladigan arterial gipertoniya. Surunkali yurak yetishmovchiligida parhez prinsiplari, parhezning asosiy komponentlari, kasallikning etiologiyasi va patogeneziga, laborator tahlillar va asbobiy tekshiruv natijalari bilan bog'liq holda farqlanishi. O'tkir yurak yetishmovchiligidagi parhez. Tug'ma gemolitik anemiya. Tug'ma gemolitik anemiyada og'iz bo'shlig'ida bo'ladigan o'zgarishlar. Gemolitik anemiyada tishlarda bo'ladigan o'zgarishlar. Gipo-aplastik anemiyalar. Aplastik anemiyada og'iz bo'shlig'ida bo'ladigan o'zgarishlar. Aplastik anemiyada tishlarda bo'ladigan o'zgarishlar. Sariqlikni qiyosiy tashxislash.
- 13.** Stomatolog amaliyotida uchraydigan gemorragik diatezlar. Gemorragik diatez bilan og'riqan bemorlarda stomatolog yordami xususiyatlari. Qon to'xtatuvchi vositalar. Qon ketishda ko'rsatiladigan shoshilinch yordam. Sistemali vaskulitlarda og'iz bo'shligidagi o'zgarishlar. Sistemali vaskulit bilan og'riqan bemorlarda stomatologik bemorlarni olib borish taktikasi. Qon shaklli elementlarini hosil bo'lish fiziologiyasi. Sternal punksiya. Gemoblastoz bilan og'riqan bemorlarda stomatologik bemorlarni olib borish taktikasi. Suyak ko'migini ko'chirib o'tkazishga ko'rsatma. Leykoz bilan og'riqan bemorlarda og'iz bo'shligining holati. Endemik buzoq. Feoxromotsitoma. Kon kasalligi. Qandli diabetni 1 va 2 tipida va qandsiz diabetda parhez taom stoli. Qandli

	<p>diabetli bemorlarda og‘iz bo‘shligini holati. Diabet bilan og‘rikan bemorlarda stomatologik bemorlarni olib borish taktikasi.</p> <p>14. Autoimmun kasalliklarni rivojlanish mexanizmlari. Tizimli sklerodermiya, tizimli qizil toshma, dermatomiozitli bemorlarda og‘iz bo‘shlig‘ining holati va stomatolog yordami. Biriktiruvchi to‘qima diffuz kasalliklarida immunsupressiv davo. Betta-hujayrali davo, ko‘rsatma, qarshi ko‘rsatma. Koma. Prekoma. Kollaps, xushdan ketish, shokda stomatolog taktikasi. Anafilaktik shok profilaktikasi. Anafilaktik shokda birinchi yordam. Sistemali mastotsitoz turlari. Patofiziologiyasi va klinik namoyon bo‘lishi. Diagnostika davolash.</p> <p>15. Immun tanqislikning aralash sindromlari: teri va shilliq qavatlar kandidozi, X-bog‘langan limfoproliferativ sindrom, timoma bilan bog‘liq immuntanqislik, Viskott-Oldrich sindromi, giperimmunoglobulin Ye sindromi, immunodefitsit bilan bog‘liq bo‘lgan metabolik o‘zgarishlar. OITS profilaktikasi. Silning patomorfologiyasi, patogenezini. Silning klinik belgilari. Sil bilan kasallangan bemorlarini tekshirish usullari. Silning klinik tasnifi. Tuberkulinodiagnostika. Silga qarshi vaksina bilan emlash va qayta emlash. Silning kimyoviy profilaktikasi. Og‘iz bo‘shlig‘i sili. Periferik limfa tugunlari sili.</p> <p style="text-align: center;">Jami</p>
4	<p>IV. Ta’lim natijalari/kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba semester yakunida:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo‘lish; - Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati; - Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik; - O‘z-o‘zini rivojlantirishga, anglashga, o‘qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik; - Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo‘llashga tayyorlik; - Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik; - Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og‘zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik; - Tibbiy hujjatlarni yuritishga tayyorgalik;

	<ul style="list-style-type: none"> - Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik; - Bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish va dastlabki tibbiy sanitar yordam ko'rsatishni ta'minlashga tayyorlik; - Tibbiy yordam ko'rsatishda ko'zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik. 												
5	<p>V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. suhbat shaklida nazariy ma'lumot berish; 2. interfaol keys-stadilar; 3. tezkor savol-javoblar; 4. guruxlarda ishlash; 5. jamoa bo`lib ishlash; 6. taqdimotlar tayyorlash; 7. dalolatnomalar yozish; 												
6	<p>VI. Kreditni olish uchun talabalar:</p> <p>Terapiya moduli bo'yicha nazorat turlari va baholash mezonlari haqidagi ma'lumot modul bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi. Talabalarning modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - joriy nazorat (JN); - oraliq nazorat (ON); <p>Modulga ajratilgan 4,0 kreditni talaba JN davomida yig'adi.</p> <table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse; text-align: center;"> <thead> <tr> <th style="width: 5%;">№</th> <th style="width: 70%;">Baholash turi</th> <th style="width: 25%;">Kredit soni</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>1.</td> <td>Joriy nazorat</td> <td>4</td> </tr> <tr> <td>2.</td> <td>Oraliq nazorat</td> <td>0</td> </tr> <tr> <td></td> <td>JAMI</td> <td>4</td> </tr> </tbody> </table> <p style="text-align: center;">JORIY NAZORAT (JN)</p> <p>Joriy nazoratda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Terapiya moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, bemorlar bilan ishlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.</p>	№	Baholash turi	Kredit soni	1.	Joriy nazorat	4	2.	Oraliq nazorat	0		JAMI	4
№	Baholash turi	Kredit soni											
1.	Joriy nazorat	4											
2.	Oraliq nazorat	0											
	JAMI	4											

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg‘ulot materiallarini o‘zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta’limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya’ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi.

Har bir mashg‘ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal ball 100, o‘tish bali 55 ball.

Joriy nazorat uchun ajratilgan 4 kredit.

Talaba har bir bo‘limdan belgilangan kreditlarni to‘plagandan keyingina oraliq va yakuniy nazoratga kiritiladi.

Joriy nazoratda saralash (o‘tish) ballidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy nazorat uchun yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o‘qishni boshlaganidan so‘ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida modul bo‘yicha joriy nazoratda saralash balidan kam ball to‘plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o‘zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o‘zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko‘ra belgilangan tartibda rektorning buyrug‘i bilan kursdan kursga qoldiriladi.

Modul bo‘yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS baho	ECTS ning ta’rifi		Baho	Ta’rifi
86-100	A	"a'lo" - a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	modul dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;	5	a'lo

			<p>muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi;</p> <p>nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;</p> <p>modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;</p> <p>modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
81-85	B	"juda yaxshi" - o'rtadan yuqori	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur	4	yaxshi

			<p>natija, ayrim hatoliklar bilan</p> <p>dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standard vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar,</p>		
--	--	--	---	--	--

			<p>konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
71-80	C	"yaxshi" - o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va</p>		

			kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan; amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi; modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi; o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;		
60-70	D	"qoni-qarli" - sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo'lishi; terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi; javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi; amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni	3	Qoni qarli

			<p>ji hatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
55-59	E	"o'rta" - minimal natijaga teng	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni</p>		

			<p>(sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standard (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
31-54	FX	"qoniqarsiz" - minimal darajadagi bilim-larni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlashtirishi zarur	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa;</p> <p>amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto</p>	2	Qoni qarsiz

			pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" to'liq qayta o'zlash-tirishi lozim	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		

ORALIQ NAZORAT (ON)

6 semestrda oraliq nazorat o'tkaziladi. JBdan to'liq kredit olmagan talaba ONga kiritilmaydi. ON semestr ohirida, og'zaki amaliy ko'nikmalarga asoslangan holda mulyajlar va fantomlardan iborat maxsus savolnomalar asosida amalga oshiriladi 100 balli tizimda baholanadi, o'tish bali 55 ball.

SINO'V

JNga ajratilgan kreditlarni to'liq to'plagan, ONni topshirgan talaba sinovga kiritiladi. Sinov modul yakunida og'zaki + amaliy ko'nikma shaklida o'tkaziladi. Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy ko'nikmalarni egallash darajasi va nazariy bilimlari tekshiriladi. Biletida 3 ta nazariy savol va 1 ta amaliy ko'nikma beriladi, har biriga 25 ball beriladi. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball. Sinov saralash balini (55) yig'a olmagan talaba sinov dan o'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi (JNda

to'liq kreditni yiqqan bo'lsa ham). Ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi va yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi. Kasalligi sababli sinovga kelmagan va topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi. Semestr yakunida yakuniy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi. Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan kursdan kursga qoldiriladi. Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, modul bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi. Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Kazan Federal Universiteti Meditsina fakultetining darsliklaridan foydalanildi va ishchi o'quv dasturidan quyidagi amaliy mash'ulot mavzusi qo'shimcha sifatida kiritildi:

- **Anemiya. Temir tanqisligi va vitamin B12 yetishmasligi kamqonligini davolash, profilaktika.**

Asosiy adabiyotlar:

1. Gadayev A.G., Axmedov X.S., Sabirov M.A., Shodikulova G.Z. Terapiya, Darslik. Toshkent. 2019 y.
2. Gadayev A.G. Ichki kasalliklar propedevtikasi, Darslik. Toshkent. 2012 y.
3. Sharapov F.G. Ichki kasalliklar, Darslik. Toshkent. 2006 y.
4. Ubaydullayev A.M. Sil kasalligi, O'quv qo'llanma. Toshkent. 2009 y.
5. Давыдкин И Л, Шукин Ю В Поликлиническая терапия 2020
Dr_Husain_A_Sattar_Pathoma_Fundamentals_of_Pathology_2021_pathoma

6. Сторожаков Г.И., Поликлиническая терапия [Электронный ресурс] : учебник / Сторожаков Г.И., Чукаева И.И., Александров А.А. - 2-е изд., перераб. и доп. - М. : ГЭОТАР-Медиа, 2013. - 640 с. - ISBN 978-5-9704-2501-5 - Режим доступа:

<http://www.studmedlib.ru/book/ISBN9785970425015.html>

7. Томилов А.Ф., Атлас клинической медицины: Внешние признаки болезней [Электронный ресурс] / Томилов А.Ф. - М. : ГЭОТАР-Медиа, 2013. - 176 с. - ISBN978-5-9704-2562-6-Режимдоступа:

<http://www.studmedlib.ru/book/ISBN9785970425626.html>

Qoshimcha adabiyotlar

1. Bobajonov S.N. Ichki kasalliklar, Darslik. Toshkent. 2008 y.
2. Okorokov A.N. Diagnostika vnutrennix bolezney v 10-ti tomax, Uchebnik. Moskva. 2007 g.
3. Sobirov M.O., Skosyireva O.V. Ichki kasalliklar bo'yicha masalalar to'plami. Toshkent. 2015 y.
4. Djon Krofton, Normann Xorn, Fred Miller. Sil kasalliklar, Darslik. Toshkent. 2009 y.
5. Эргашева З.А. Хронический гломерулонефрит: клиника, диагностика, лечение и профилактика. Учебное пособие. Андижан.2022 г.
6. Юлдашева Г.Б. Оилавий шифокорлар амалиётида нафас олиш аъзолари касалликлари эрта ташхислаш ва даволаш мезонлари. Ўқув қўлланма. Андижон.2023 й.
7. Якубов А.А., Қутликова Г.М. 2- тур қандли диабетини бор беморларда коронар стенозлардан кейинги узок муддатли асоратлар. Монография. Андижон.2023 й.
8. Эргашева З.А., Касимова Н.К. Заболевания органов дыхания. Учебное пособие. Андижан.2024 г.
9. Qutlikova G.M. Oilaviy shifokorlar amaliyotida yurak qon tomir kasalliklarini tashxislash va davolash. O'quv qo'llanma. Andijon 2024 y.
10. Mo'minov I.A., Ergasheva Z.A. Klinik elktrokardiografiya. O'quv qo'llanma. Andijon 2024 y.
11. Ergasheva Z.A. Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari. O'quv qo'llanma. Andijon 2024 y.
12. Национальный клинический протокол по ведению больных с артериальной гипертензией. Ташкент 2024
13. Национальный клинический протокол по ведению больных хронической ишемической болезнью сердца. Ташкент 2024
14. Национальный клинический протокол по ведению больных с бронхиальной астмой. Ташкент 2024

	<p>15.Национальный клинический протокол по ведению больных с хронической обструктивной болезнью легких. Ташкент 2024</p> <p>16.Национальный клинический протокол по ведению больных с циррозом печени. Ташкент 2024</p> <p>17.Национальный клинический протокол по ведению больных с хроническим вирусным гепатитом в без дельта агента. Ташкент 2024</p> <p>18.Национальный клинический протокол по ведению больных с хроническим вирусным гепатитом С. Ташкент 2024</p> <p style="text-align: center;">Internet saytlari</p> <p><i>Internet sites</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. German "Lecturio GmbH" medical site 2. www.tma.u 3. www.medlincs.ru 4. www.medbook.ru 5. www.zyonet.uz 6. www.rmj.net -Russian medical journal. 7. www.medport.ru - Faculty of Medicine.
7	Andijon davlat tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va OTM Kengashinin 2025 yil 27 avgustdagi 1-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
8	Fan/modul uchun mas`ul: A.R.Roxibjonov- Ichki kasalliklar kafedrası assistenti.
9	Taqrizchi: Z.S.Salaxiddinov - OSHT kafedrası mudiri, professor. Z.A.Ergasheva - Ichki kasalliklar kafedrası mudiri, t.f.n., dotsent.